



«Go'zal ayollar uchun!» promo-aksiya qoidalari.

1. Umumiy qoidalar

1.1. Ushbu qoidalar «Go'zal ayollar uchun!» promo-aksiyasini o'tkazish tartibi, shartlari, o'tkazilish joyi va muddatini belgilaydi.

1.2. **Aksiya o'tkaziladigan hudud:** «Orient Finans» XATB tizimi doirasida, O'zbekiston Respublikasi hududida.

1.3. **Aksiya o'tkazish muddati:** Aksiya 2026 yil 04 martdan 2026 yil 08 aprelgacha o'tkaziladi.

2. Aksiya Ishtrokchilari

2.1. Aksiyada 18 yoshga to'lgan O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bo'lgan ayollar va qizlar ishtirok etishlari mumkin. «Orient Finans» XATB xodimlari, ularning yaqin qarindoshlari hamda aksiyani tashkil etish yoki reklama qilishda ishtirok etgan shaxslar aksiyada qatnashish huquqiga ega emas.

2.2. Aksiyada ishtrok etish – ishtrokchining ushbu qoidalarga to'liq roziligini anglatadi.

2.3. Qoidalarga rioya qilinmagan taqdirda, ishtrokchi Aksiyada ishtrok etish va sovrin olish huquqidan mahrum bo'ladi. Sovrinni olish uchun ishtrokchilar Aksiya davomida ushbu Qoidalarda belgilangan barcha talablarni bajarishlari shart.

3. Aksiyada ishtrok etish shartlari

3.1 Aksiya ishtirok etish tartibi;
Aksiyada ishtirok etish uchun mijoz quyidagi shartlarni bajarishi lozim:

- OFB mobil ilovasini yuklab olishi;
- Ilovada identifikatsiyadan o'tishi;
- OFB mobil ilovasi orqali istalgan turdagi bank kartasini buyurtma qilishi;
- Kartani qabul qilishi;
- OFB mobil ilovasida ushbu kartadan istalgan tranzaksiyani amalga oshirish.

4. Sovrin Jamg'armasi

4.1 Aksiya doirasida 64 nafar g'olib aniqlanadi va ularga quyidagi sovg'alar taqdim etiladi.

1. Befit SPA ga 8 ta sertifikat;
2. Bistecca restoraniga 500 000 so'mlik 8 ta sertifikat;
3. Bloom ga 500 000 so'mlik 8 ta sertifikat;
4. L'occitane brendidan 8 ta sovg'a to'plami;
5. Soho saloniga 8 ta sertifikat;
6. Hofmann brendidan 8 ta blender;
7. OFB brendi ostidagi 1 turdagi 8 ta sovg'a to'plami;
8. OFB brendi ostidagi 2 turdagi 8 ta sovg'a to'plami.

5. Promo-aksiyani o'tkazish tartibi va sovrinlarni o'ynash jarayoni

- 5.1. Aksiya bankning yangi mijozlari o'rtasida amalga oshiriladi.
- 5.2. Mazkur aksiya faqat ayollar uchun mo'ljallangan.

5.3. 4.1.- ko'rsatilgan yutuqli o'yinning ishtirokchilari deb aksiya shartlarini bajargan va quyida ko'rsatilgan davrda tranzaksiyalarni amalga oshirgan karta egalari hisoblanadi.

1 bosqich 04.03.2026 yildan - 08.04.2026 yilgacha (shu kun ham kiritilgan)
64 nafar g'oliblar 30.04.2026 yilga qadar aniqlanadi.

5.4. Bank Aksiya ishtirokchilari bilan yozma muzokaralar olib bormaslik yoki boshqa aloqalar o'rnatmaslik huquqini o'zida saqlab qoladi, Aksiya o'tkazishda bahsli holatlar bundan mustasno.

5.5. Sovrinlar g'oliblari maxsus Random.org dasturi yoki shunga o'xshash tasodifiy raqamlar yaratish dasturlari orqali aniqlanadi.

5.6. Aksiyada ishtirok etish – ishtirokchilar o'z ism, sharflari, fotosuratlarini va boshqa ma'lumotlarini tashkilotchi tomonidan reklama maqsadlarida hech qanday qo'shimcha to'lovsiz qo'llashga rozilik berishini anglatadi.

5.7. Bank o'z xohishiga ko'ra ushbu Qoidalarga har qanday o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish huquqini saqlab qoladi va bu o'zgarishlar qo'llanilishidan 3 (uch) ish kuni oldin saytida e'lon qiladi. Bank sovg'alar ro'yxati va ularning miqdorini o'zgartirish yoki kengaytirish huquqiga ega. Bank ishtirokchiga Aksiyada ishtirok etish bilan bog'liq yuzaga kelgan zarar, xarajat yoki boshqa yo'qotishlarni qoplamaydi.

5.8. Bank sovg'adan foydalanish davomida g'olibning sog'lig'i (hayoti) ga yoki uchinchi shaxslarning mulki, salomatligi yoki hayotiga etkazilgan zarar uchun javobgarlikni o'z zimmasiga olmaydi.

5.9. Aksiyani o'tkazish jarayonida paydo bo'lishi mumkin bo'lgan barcha nizo va kelishmovchiliklar Bank va ishtirokchi o'rtasida ixtiyoriy muzokara olib boorish yo'li bilan hal etiladi. Agar kelishuvga erishilmasa, nizo sud orqali ko'rib chiqiladi.

5.10. Bank shubhali yoki soxta tranzaksiyalar aniqlangan taqdirda, ishtirokchini sababini tushuntirmasdan aksiyadan chetlashtirish huquqiga ega.

5.11. Aksiya g'oliblari www.ofb.uz, OAV va ijtimoiy tarmoqlarda e'lon qilinadi.

5.12. Tashkilotchi ishtirokchining Aksiya shartlariga rioya qilmasligi oqibatlarini uchun javobgar emas.

6. Sovrinlarni qabul qilish tartibi va muddati

6.1. Sovrinlar Toshkent shahri, Osiyo ko'chasi, 5-uyda joylashgan «Orient Finans» XATB da yoki boshqa filiallarda tegishli hujjatga imzo chekkan holda topshiriladi.

6.2. Sovrin – mijozning shaxsini tasdiqlovchi hujjati ma'lumotlari ishtirok etishdagi ma'lumotlarga to'liq mos kelganda topshiriladi.

6.3. Aksiya g'olibi sovrinni olish uchun shaxsini tasdiqlovchi hujjat asl nusxasini taqdim etadi.

6.4. G'olib sovrinni ololmasa, bu haqida xabar beradi va boshqa sana kelishiladi.

6.5. Sovrin topshirilishi – topshirish-qabul qilish dalolatnomasiga asosan rasmiylashtiriladi.

6.6. Barcha 4.1., band bo'yicha soliqlar, to'lovlar va boshqa xarajatlarni Bank hisobidan to'lanadi.

6.7. Bankning sovrinni topshirish - qabul qilish dalolatnomasiga imzolanganidan so'ng majburiyati bajarilgan hisoblanadi.

6.8. Sovringa egalik huquqi topshirilgan paytdan boshlab g'olibga o'tadi.

6.9. Sovrin topshirilishi ommaviy tadbir sifatida o'tkazilishi mumkin.

6.10. Sovrinni olishning so'nggi muddati — 2026-yil 31-may. Ushbu muddat tugaganidan so'ng sovrin taqdim etilmaydi va uni olish huquqi yo'qotilgan deb hisoblanadi.

7. Aksiya ishtrokchilariga aksiya shartlari, aksiyani to'xtatish yoki muddatidan oldin yakunlash to'g'risida xabar berish tartibi

7.1. Aksiya haqida xabarnomalar qisqa metrajli roliklar monitorlar, bankning ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalari orqali beriladi.

7.2. Batafsil ma'lumot bankning rasmiy www.ofb.uz sayti orqali elon qilinadi.

7.3. Promo-aksiya haqida qo'shimcha ma'lumotni quyidagi raqam orqali olish mumkin: (+998 71) 200-88-99.

7.4. Agar Aksiya muddatidan oldin to'xtatilsa, muddatlari uzaytirilsa yoki qoidalarga o'zgartirishlar kiritilsa, www.ofb.uz sayti orqali elon qilinadi.